O‘RTA ASR DINLAR TARIXIGA OID MANBALARDA YAHUDIYLIK OQIMLARI E’TIDOQLARINING AKS ETISHI

REFLECTION OF BELIEFS OF JUDAISM IN MEDIEVAL HISTORY OF RELIGIOUS SOURCES

ОТРАЖЕНИЕ ВЕРОВАНИЙ ИУДАИЗМА В ИСТОЧНИКАХ ПО ИСТОРИИ РЕЛИГИЙ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

Mumin Mirzo M. ABDUPATTAYEV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
Teacher at the Department UNESCO Chair on Religious Studies and Comparative Study of World Religions, PhD
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan
mirzo21@umail.uz

Bibigulnar A. ERBOSYNOVA,
International Kazakh-Turkish University named after H.A. Yasawi
Teacher at the Department of Russian Language and Literature
B.Sattarkhanov Ave, 29, Turkestan, Kazakhstan
rysbekova1966@bk.ru

DOI: 10.47980/IIAU/2024/1/9

Annotatsiya: *Dunyodagi eng qadimiy milliy dinlardan biri bo’lgan Yahudiylik taxminan mil.avv. 2-ming yillikda Misrda paydo bo’lgan. Ushbu din ta’limotiga ko’ra, Xudo 400 yil davomida Misrda qullikda saqlanib kelgan Ibrohim avlodlarini ozod qilib, Misr yerlaridan olib chiqib ketgan Muso (Moshe)ga Sinay tog’ida vahiy yubordi va yahudiylik dini yuzaga keldi, deb hisoblanadi. Yahudiylikning muqaddas kitobi Tavrotga ko‘ra, barcha insonlar bir ajdoddan tarqalgan bo‘lib, Nuh payg‘ambar o‘g‘illari davrigacha odamlar o‘rtasida irqiy kamsitish bo‘lmagan. An’anaviy yahudiy tushunchasiga ko‘ra, Nuh payg‘ambarning Xom, Som va Yofas ismli uchta o‘g‘li bor edi. Ularning har biri bir xalqning ajdodlariga aylandi. Xom xomiylar (qora tanlilar) ning ajdodi, Som somiylar (arab va yahudiylar)ning ajdodi, Yofas esa ajamlarning ajdodi edi. Ular orasida Som va uning nasl-nasabi boshqalardan ajralib turgan. Som avlodidan bo‘lgan Abar Ibrohim payg‘ambarning katta bobosi edi. Shuning uchun Ibrohim payg‘ambar ibroniy (ibri) ya’ni “Abar avlodi” deb atalgan va u gapiradigan til ibroniy (ivrit) deb nomlangan.*

Yahudiylik yagona Xudoga, muqaddas kitobga va payg’ambarlarga imon keltirilishi bilan milliy dinlardan, milliylashtirilishi bilan esa, ilohiy dinlardan ajralib turadi. Yahudiylikda diniylik va milliylik o’zaro birlashib ketgan bo’lib, ularni bir-biridan alohida tushunish mumkin emas. Barcha dinlarda bo’lgani kabi yahudiylikda ham uzoq tarixiy taraqqiyot davomida ichki bo’linishlar yuzaga kelgan.

O‘rta asrlarda faoliyat olib borgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hazm Andalusiy, Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy kabi musulmon dinshunos olimlarining dinlar tarixiga oid asarlarida milliy din hisoblangan yahudiylik dini doirasida paydo bo‘lgan oqimlar e’tiqodlari ham zikr qilingan. Bunda olimlar “73 firqa hadisiga” tayanishgan. Oqimlar aqidasi esa ularning Tavrot va “xaloskor” (Messiah, Meyshah)ga bo‘lgan ishonchlari asosida yoritilgan.

Ushbu maqolada o‘rta asr manbalari asosida yahudiylik oqimlari e’tiqodlarining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *yahudiylik, ibroniy, Bani Isroil, isaviylik, anoniylik, yudg‘oniylik, mushkoniylik, somiriylik, Tavrot, Muso, Meyshah, Beruniy, Andalusiy, Shahristoniy, Ya’qub Qirqisoniy.*

Annotation: *Judaism, one of the oldest national religions in the world, appeared in Egypt around the second millennium BC. According to the teaching of this religion, it is believed that God sent a revelation to Moses (Moshe) on Mount Sinai, who freed the descendants of Abraham, who were kept in slavery in Egypt for 400 years, and took them out of the land of Egypt, and the religion of Judaism was born. According to the Torah, the holy book of Judaism, all people are descended from one ancestor, and there was no racial discrimination between people until the time of the sons of Prophet Noah. According to traditional Jewish understanding, Noah had three sons, Ham, Sam and Jophaz. Each of them became the ancestors of a nation. Ham was the ancestor of the Hamites (black people), Sam was the ancestor of the Semites (Arabs and Jews), and Jophaz was the ancestor of the novices. Among them, Sam and his descendants stood out from the others. Abar, a descendant of Sam, was the great grandfather of the Prophet Ibrahim. That is why Prophet Abraham was called Hebrew (Ibri), that is, “Abar’s descendant”, and the language he spoke was called Hebrew (Hebrew).*

Judaism is distinguished from national religions by its belief in the one God, the holy book and prophets, and from divine religions by its nationalization. In Judaism, religiosity and nationality are intertwined and cannot be understood separately from each other. Like all religions, Judaism has experienced internal divisions throughout its long history.

In the works of Muslim religious scholars such as Abu Raykhan Beruni, Ibn Hazm Andalusi, Muhammad ibn Abdulkarim Shahristani, who worked in the Middle Ages, the beliefs of currents that emerged within the framework of Judaism, which is considered the national religion, are also mentioned. Scientists relied on the “hadith of 73 sects”. The creed of the currents is explained on the basis of their faith in the Torah and the “savior” (Messiah, Meishah).

This article analyzes the similarities and differences of the beliefs of the Jewish sects based on medieval sources.

Key words: *Judaism, Hebrew, Bani Israel, Isaviism, Judeanism, Mushkonism, Samaritanism, Torah, Moses, Meishah, Biruni, Andalusi, Shahristani, Ya'qub Kirghisani.*

Аннотация: *Иудаизм, одна из старейших национальных религий в мире, возник примерно в 1000 году до нашей эры. Он появился в Египте во 2 тысячелетии. Согласно учению этой религии, считается, что Бог послал откровение Моисею (Моше) на горе Синай, который освободил потомков Авраама, 400 лет содержавшихся в рабстве в Египте, и вывел их из земли. Египта, и родилась религия иудаизм. Согласно Торе, священной книге иудаизма, все люди произошли от одного предка, и до времен сыновей пророка Ноя между людьми не было расовой дискриминации. Согласно традиционному еврейскому пониманию, у Ноя было три сына: Хам, Сим и Иофаз. Каждый из них стал родоначальником народа. Хам был предком хамитов (черных людей), Сим был предком семитов (арабов и евреев), а Иофаз был предком послушников. Среди них выделялись Сим и его потомки. Абар Ибрагим, потомок Сима, был прадедом Пророка. Именно поэтому Пророка Авраама называли ивритом (Ибри), то есть «потомком Абара», а язык, на котором он говорил, назывался ивритом (иврит).*

Иудаизм отличается от национальных религий своей верой в единого Бога, священную книгу и пророков, а от божественных религий — своей национализацией. В иудаизме религиозность и национальность переплетены и не могут пониматься отдельно друг от друга. Как и все религии, иудаизм на протяжении своей долгой истории переживал внутренние разногласия. В трудах мусульманских богословов, таких как Абу Райхан Беруни, Ибн Хазм Андалуси, Мухаммад ибн Абдулкарим Шахристани, работавших в средние века, также рассматриваются верования течений, возникших в рамках иудаизма, считающегося национальной религией. В этом вопросе ученые опирались на «хадисы о 73 сектах». Вероучение течений объясняется на основе их веры в Тору и «спасителя» (Мессию, Мейшу).

В данной статье анализируются сходства и различия верований еврейских сект на основе средневековых источников.

Ключевые слова: *иудаизм, иврит, Бани Исраэль, исавизм, анонизм, иудаизм, мушконизм, самаритянство, Тора, Моисей, Мейшах, Бируни, Андалуси, Шахристани, Якуб Киргисани.*

KIRISH

Yahudiylik samoviy (tavhid) dinlarning eng qadimgisi bo‘lib, tahminan miloddan avvalgi ikkinchi mingyillikda paydo bo‘lgan. Asosiy e’tiqodi yakkaxudolikka targ‘ib qilish bo‘lgan yahudiylik dini vakillari islom manbalarida “Bani Isroil” ya’ni “Isroil o‘g‘illari” nomi bilan tilga olinadi *(Mansur, 2016)*. Isroil Ibrohim payg‘ambarning ikkinchi o‘g‘li Is’hoq payg‘ambardan bo‘lgan nabirasi Ya’qub payg‘ambarning ikkinchi ismi bo‘lib, “Xudo bilan kurashib uni yenggan” degan ma’noni bildiradi. Buning sababi Tavrotda quyidagicha talqin qilingan. Unga ko‘ra, o‘zini “Xudoning odami” deb tanishtirgan bir kishi Ya’qub payg‘ambarning huzuriga kelib, u bilan ertalabgacha kurashgan, lekin uni mag‘lub eta olmagan. Ertalab odam Ya’qubni duo qildi va unga “Isroil” laqabini berdi, bu “Xudo bilan muomala qiluvchi” degan ma’noni anglatadi va uning avlodlarini “Isroil bolalari” deb atala boshlangan *(Muqaddas Kitob, 2016)*.

MAQSAD VA VAZIFA

Abu Rayxon Beruniy, Ibn Hazm Andalusiy va Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy kabi o‘rta asrlar musulmon dinshunos olimlarining ilmiy meroslari asosida yahudiylik dini va din doirasida paydo bo‘lgan oqimlarning e’tiqodlarini tahlil etish orqali yoritib berishdan iborat.

USULLAR

Monoteistik din hisoblangan yahudiylik dini ta’limoti va din doirasida paydo bo‘lgan bir qancha oqimlar e’tiqodini o‘rta asr musulmon olimlar ilmiy meroslari asosida o‘rganishda qiyosiy-tarixiy, tipologik, germenevtik hamda deduksion tahlil etish kabi usullaridan foydalanildi.

NATIJA

Yahudiylik dini yagona Xudo (Yahve)ga, muqaddas kitob (Tavrot)ga va payg’ambarlarga imon keltirilishi bilan milliy dinlardan, milliylashtirilishi bilan esa, ilohiy dinlardan ajralib turadi. Yahudiylikda diniylik va milliylik o’zaro birlashib ketgan bo’lib, ularni bir–biridan alohida tushunish mumkin emas.

Yahudiy nomining paydo bo‘lishi borasida turli fikrlar mavjud:

1. Qadimgi ivrit tilidagi “narigi tomonning odami”, “begona odam”, “kelgindi” ma’nolarini anglatuvchi “ibri”, “ibroniy” so‘zlaridan yahudiy nomi kelib chiqqan. Chunki yahudiylar Falastin yerlariga Frot daryosini kechib o‘tib o‘rnashganlar va mahalliy xalq ularni “daryoni kechib o‘tgan begonalar” deb atagan. Vaqtlar o‘tishi bilan bu nom yahudiy nomi bilan sinonimga aylanib ketgan *(H., The Problem of the Ibrim (“Hebrews”) in the Bible, 1932/33.)*. “Ibroniy” so‘zi ilk marta Tavrotning Ibtido qismida zikr qilingan.

“Qochoqlardan biri ibroniy Ibromga borib, bo‘lgan voqealarni xabar qildi” *(Muqaddas Kitob, 2016)*.

2. Bu nom arab tilidagi “داه” ya’ni “tavba qildi” fe’lidan olingan. Bunga Muso (a.s.)ning “Biz Sening O‘zingga tavba qildik” (A’rof, 156), degan so‘zi dalil qilingan. Yahudiy nomi “haada ar-rojul” ya’ni “kishi gunohidan qaytdi va tavba qildi” ma’nosini bildiradi.

3. Bani Isroilning 12 qabilasini birlashtirgan Ya’qub (a.s.)ning to‘rtinchi o‘g‘li Yahudo (Iuda)ning nomidan olingan *(O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002)*.

Yuqoridagi uch fikrni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yahudiy nomi Frot daryosini kechib o‘tib, Falastin yerlariga o‘rnashgan, gunohlari kechirilishini so‘rab tavba qilgan va o‘n ikki qabila birlashib, yagona millatga aylangan xalqqa nisbatan qo‘llanilgan.

Ibroniylar Ya’qub payg‘ambar davridan to miloddan avvalgi 587-yilda Bobil hukmdori Navuxodonosor II (Buxtunnasr) tomonidan Bobilga surgun qilingunlaricha umumiy nom bilan “Isroil” deb atalganlar. Surgundan keyin Misr davrini boshdan kechirgan ibroniylar Muso payg‘ambar davrida “yahudiylar” nomini oldi. Bobil davridan so‘ng “yahudiy” nomi birinchi o‘ringa chiqdi, lekin shunday bo‘lsa-da “Isroil” nomi ham ishlatilaverilgan. “Isroil” umumiy tarixiy ma’noda, “yahudiy” esa o‘ziga xos va “mumtoz” xalqni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu nom A’rof surasi 156-oyatdagi Muso (a.s.)ning اِنَّا هُدْنَا اِلَيْكَ ya’ni “Biz Sening O‘zingga tavba qildik” so‘zlaridan olingan. Qur’onda kelgan “Bani Isroil”dan Iso (a.s.)dan avvalgi yahudiylar, “yahudiylar”dan esa Iso (a.s.)dan keyingilar nazarda tutilgan *(Gündüz, 2007)*.

O‘rta asrlar mashhur din tarixchisi Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy yahudiylarning muqaddas kitobi Tavrot boshqa muqaddas kitoblardan ajralib turishi to‘g‘risida quyilagilarni bayon qilgan: “Ular, Muso (a.s.)ning ummatlari bo‘lib, kitoblari Tavrotdir. Tavrot ilk nozil qilingan kitobdir. Ya’ni, Ibrohim (a.s.) va boshqa payg‘ambarlarga nozil bo‘lgan narsalar, kitob deb emas, balki sahifalar (suhuf) deb nomlangan. Payg‘ambar (s.a.v.)dan vorid bo‘lgan bir hadisda, u zot aydatilar: “Alloh Odamni O‘z qo‘li bilan yaratdi, Adn jannatini O‘z qo‘li bilan yaratdi va Tavrotni O‘z qo‘li bilan yozdi”. Bu hadisda Tavrotning boshqa kitoblardan farqi va o‘ziga xosligi xabar qilingan” *(Shahristoniy, 2003, p. 250.)*.

Olim Tavrotning sifr (asfor) deb nomlangan 5 bo‘limdan tashkil topganini, ilk sifrda yaratilishning ibtidosi, keyingi asforlarda hukmlar, jazolar (hadd), hollar va qasos, mav’iza va zikrlar alohida bo‘limlarda zikr qilinganini qayd etgan *(Shahristoniy, 2003, p. 251)*. Abu Rayxon Beruniy ham Tavrot sifr (bo‘lim)lardan tashkil topganini, ularda olam va Odamning yaratilishi, yahudiylarning Misrdan chiqishi, qonun-qoidalar, ziroat masalalari, bayramlar, payg‘ambarlar qissalari, shanba kunini ulug‘lash kabilar o‘rin olganini ta’kidlagan *(Shahristoniy, 2003, p. 251)*. Ibn Hazm ham Tavrot besh sifrdan iborat ekanini bayon qilgan (Andalusiy, 2006, p. 282).

Yuqorida zikr qilingan besh asfor bu Tavrotdagi Muso (a.s.)ning besh kitobi hisoblanadi. Bu kitoblar Ibtido (Bereshit), Chiqish (Shemot), Levilar yoki Loviylar (Vayiqra), Sonlar yoki Sahroda (Bamidbar) va Qonunlar (Damarim) deb nomlanadi.

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy yahudiylarning qo‘lida Tavrotdan boshqa yana bir manba “lavhlar” borligini keltirib, ularda Tavrotdagi masalalar qisqacha bayon qilingani haqida, “Alloh taolo Muso (a.s.)ga Tavrotdagilarning muxtasari kabi bo‘lgan, ilmiy va amaliy qismlardan tashkil topgan lavhlarni tushirgan. Alloh taoloning: “Va unga lavhlarda hamma narsadan mav’iza va har bir narsaning tafsilotini yozib berdik” *(Mansur, Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri, 2016, p. 168)* (A’rof, 145) oyatining “har narsadan mav’iza” qismi lavhlarning ilmiy qismiga, “har bir narsaning tafsilotini” ifodasi esa lavhlarning amaliy qismiga ishora qiladi” *(Shahristoniy, 2003, p. 251)* deb, lavhlarning sifatlarini bayon qilgan.

Olim zikr qilgan lavhlar yahudiylik ta’limotiga ko‘ra, Xudo tomonidan Musoga tushirilgan “O‘n amr (buyruq)” yozilgan ikkita lavhdir. Xudo uni Tur tog‘ida Musoga ikki marta nozil qilgan. Bu Tavrotning Chiqish va Ikkinchi Qonun kitoblaridan o‘rin olgan. Lavhning birinchi marta tushirilishi voqeasi Tavrotda quyidagicha kelgan: “Muso qo‘lida ahdning amr va qonunlari – ikki tomoniga ham yozuv bitilgan ikkita tosh lavhani olib, tog‘dan qaytib tushdi. Lavhalar Xudoning ijodi bo‘lib, ulardagi yozuvni Xudo o‘yib bitgan edi... Muso qarorgohiga yaqinlashib, buqani, odamlarning ko‘ngilxushligi ko‘rdi. Shunda u g‘azablanib, tog‘ etagida qo‘lidagi lavhalarni uloqtirgan edi, lavhalar chilparchin bo‘ldi” *(Muqaddas Kitob, 2016, pp. 130-131)*.

Lavhlarning ikkinchi marta nozil qilinishi to‘g‘risidagi xabar Qonunlar kitobining 4-bobida: “U O‘z ahdini sizlarga ayon qilib, bu ahdni – o‘nta amrni bajaringlar, deb farmon berdi. Egamiz ularni ikki tosh lavhaga yozdi”, shaklida kelgan *(Muqaddas Kitob, 2016, p. 236)*.

Musoga tushirilgan o‘n amr – Xudoga (Yahve) imon keltirish, but-sanamlarga sajda qilmaslik, Xudoning ismini suiste’mol qilmaslik, shanbani muqaddas hisoblash, ota-onani hurmat qilish, zinodan ehtiyot bo‘lish, qotillik qilmaslik, o‘g‘rilikdan tiyilish, qo‘shniga qarshi yolg‘on guvohlik bermaslik, qo‘shnining ayoliga,

mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslikdir *(Muqaddas Kitob, 2016, p. 236)*.

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy aytgan “lavhning ilmiy qismi” – Xudoga imon keltirish, Undan boshqaga ibodat qilmaslik, Uning ismini bo‘lar-bo‘lmasga tilga olmaslik bo‘lsa, “lavhning amaliy qismi” – shanba kunini muqaddas hisoblab, o‘sha kuni dam olish, ota-onani hurmat qilish, zino, qotillik, o‘g‘rilikdan tiyilish, qo‘shniga qarshi yolg‘on guvohlik bermaslik va uning ayoliga, mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslikdir.

“Al-Milal van-n-nihal”da yahudiylikning beshta firqasi zikr qilingan. Bular: anoniylik, isaviylik, yudg‘oniylik, mushkoniylik hamda somiriylikdir. Ibn Hazmning “al-Fisol”ida esa ularning somiriylik, saduqiylik, anoniylik, rabboniylik va isaviylik firqalari bayon qilingan. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida somiriylik, anoniylik va rabboniylik qabi firqalar e’tiqodlari yoritilgan.

Shahristoniy firqalarni ularning Muso (a.s.)dan keyin keladigan messiya (Meyshah, Masih – haloskor) ga bo‘lgan ishonchi va Tavrot to‘g‘risidagi e’tiqodlarini asos qilgan holda tasniflagan. Quyida ularning e’tiqodlariga birma-bir to‘xtalib o‘tiladi va boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

1. Anoniylik firqasi. Bu firqaning asoschisi yahudiy olimi Anon ibn Dovud (715-795) hisoblanadi. Bu odam o‘z ta’limotiga 760 yil Bag‘dodda asos solgan. Abbosiy xalifa Ja’far Mansur (754-775) tomonidan bu ishi uchun zindonga tashlangan. Hibsda ekanida Abu Hanifa (r.h.) bilan ko‘rishgani va unga Tavrot asoslarini boshqa yahudiylardan farqli ravishda sharhlab bergani manbalarda keladi *(Kutluay, 1965, p. 195)*, *(Marcus, 1999, p. 262)*.

Shahristoniyga ko‘ra, anoniylik asoschisi Anon ibn Dovudning laqabi “Ro’s al-Jolut” bo‘lgan. Bu firqa shanba kuni va bayramlar borasida boshqa yahudiylarga qarshi chiqqan. Qush, kiyik, baliq va chigirtka yeyishni ta’qiqlashgan. Hayvonlarni bo‘g‘zidan emas ensasidan so‘yadigan bu firqa, Iso (a.s.)ning nasihatlari va belgilariga ishonishgan. Ular, Iso (a.s.)ning Tavrotga aslo qarshi bo‘lmaganini, uni tasdiqlagani va insonlarni unga chaqirganiga e’tiqod qilishgan. Yana, Iso (a.s.) ning Tavrotga amal qilgan Bani Isroildan va Muso (a.s.) da’vatiga ergashganlardan bo‘lganini aytganlari bilan uning payg‘ambar va rasul bo‘lganini qabul qilmaganlar *(Shahristoniy, 2003, p. 256)*.

Olimning anoniylar Muso (a.s.)dan keyingi xaloskor sifatida Iso (a.s.)ni tan olishlarini keltirib shunday deydi: “Anoniylar: “Yahudiylar avval Isoni yolg‘onchiga chiqarib, unga zulm qildilar. Uning da’vatini tan olmay, oqibatda o‘ldirdilar. Ular hali ham uning mavqei va o‘rnini bilmaydilar. Vaholanki, Tavrotning ko‘p joyida Meyshah lafzi zikr qilingan. Bu lafzdan murod o‘ziga nubuvvat va nasx qiluvchi shariat berilmagan Masihdir. Shuningdek, olim kishi ma’nosida Furoqlit (Paraklit) lafzi ham kelgan. Bu Injilda ham zikr qilingan”, - deb e’tiqod qilishadi” *(Shahristoniy, 2003, p. 257)*.

Ibn Hazm ham bu firqaning asoschisi sifatida Anon ibn Dovud zikr qiladi. Shahristoniydan farqli ravishda bu firqa “Qoroinlar” deb ham atalishini, aksariyat yahudiylar qabul qilgan qoidalarni qabul qilmasliklarini, yahudiy olimlarining barchasini rad etishlarini qayd qilgan *(Andalusiy, 2006, p. 177)*. Ibn Hazmga ko‘ra, firqa a’zolari Shom, Misr, Toledo va Talbira shaharlarida istiqomat qilishgan.

2. Isaviylik. Firqa asoschisi umaviylar xalifasi Abdulmalik ibn Marvon (685-705) davrida Isfahonda o‘rtaga chiqqan yahudiy ilohiyotshunosi Abu Iso Ishoq ibn Ya’qub Isfahoniydir *(Joseph Jacobs, 1913, p. 646)*. Anoniylar firqasi vakili Ya’qub Qirqisoniy (890-960) Ishoq ibn Ya’qubni umaviylarning so‘ngi xalifasi Marvon II (744-750) davrida yashab, o‘z firqasiga asos solganini aytgan *(Qirqisoniy, 2019, p. 40)*. Shahristoniy esa uni abbosiy xalifa Ja’far Mansur davrida yashagani, lekin uning da’vati Marvon II hukmronliging oxirlarida boshlanganini qayd qilgan *(Shahristoniy, 2003, p. 257)*. Turk tadqiqotchisi Halil Ibrohim Bulut Abdulkarim Shahristoniy keltirgan ma’lumot davr e’tiboridan haqiqatga yaqin degan xulosaga kelgan *(Bulut, 2004, pp. 297-318)*.

“Al-Milal va-n-nihal”da ushbu isaviylarning firqa asoschisi Abu Iso Ishoq (Oved Elohim – Allohga qullik qilgan kishi) o‘zini Muso payg‘ambarning va kutilgan haloskor Masihning elchisi deb, da’vo qilgani, haloskorning o‘zidan keyin ketma-ket keladigan besh nafar elchisi borligi, shu bilan birga, Xudo u bilan gaplashgani, Bani Isroilni gunohkor ummatlarning va zolim hukmdorlarning qo‘lidan qutqarishga buyurilgani to‘g‘risidagi aqidalari zikr qilingan *(Shahristoniy, 2003, pp. 257-258)*.

“Al-Fisol”da Abu Iso Ishoq ibn Ya’qub Isfahoniyning ikkinchi ismi Muhammad ibn Iso ekani, isaviylar Muso (a.s.) bilan bir qatorda Iso (a.s.) va Muhammad (s.a.v.)ning payg‘ambarliklarini tan olishlari zikr qilingan. “Isaviylar: “Xudo Isoni Injildagi ko‘rsatmalar bilan Isroil o‘g‘illariga payg‘ambar qilgan. Iso yahudiylarga yuborilgan payg‘ambarlardan biridir. Muhammad (a.s.) esa Qur’on shariati bilan Ismoil o‘g‘illari va boshqa arablarga payg‘ambar bo‘lgan. Shuningdek, barcha yahudiylar ittifoq qilganidek, Ayyub Ya’qub ibn Ishoqning o‘g‘li, “rumliklar otasi” Aysning qavmiga, Bal’om esa Muob o‘g‘illariga

payg‘ambar qilib yuborilgan” *(Andalusiy, 2006, p. 179)*. Ya’qub Qirqisoniy ham bu firqaning Muhammad (s.a.v.) nubuvvatini tan olishlarini qayd qilgan.

Bundan ko‘rinadiki, isaviylar Muso (a.s.)dan keyingi payg‘ambarlarning risolatlarini qabul qilishgan. Shu bilan birga ularga qurbonlik qilish, go‘sht va sharob ichish taqiqlangan. Bu firqaning bir kunda o‘n vaqt namozlari mavjud bo‘lib, Abu Isoning o‘zi tarafdorlariga namoz vaqtlarini bildirgan va shu vaqtlarda ibodat qilishni buyurgan.

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy isaviylar Tavrotda zikr qilingan bir qancha shariat hukmlari to‘g‘risida yahudiylarga qarshi chiqqani, ularning qo‘lidagi Tavrot, johillar tomonidan uning hukmlari o‘zgartirilmasligi uchun Rum podshohlaridan birining buyrug‘i bilan o‘ttiz nafar ruhoniy tomonidan jamlanganini keltirib, ularning o‘zgartirilmagan Tavroti borligi to‘g‘risida ma’lumot bergan *(Shahristoniy, 2003, p. 258)*.

3. Yudg‘oniylik. Firqa asoschisi Hamadonlik Yudg‘on ismli shaxs hisoblanib, uning ivritcha ismi Yahudo bo‘lgan *(Musayriy, 1999, p. 321)*. U isaviylik asoschisi Abu Isoning shogirdi bo‘lib, ustozining vafotidan so‘ng Isfahonda o‘z firqasiga asos solgan. Unga ergashuvchilar dastavval “roiylar” deb atalgan. Bu firqa vakillari ham isaviylarga o‘xshab, Iso (a.s.) va Muhammad (s.a.v.)ning payg‘ambarliklarini e’tirof etishadi.

“Al-Milal va-n-nihal”da bu firqaning Tavrot va messiya to‘g‘risidagi e’tiqodi haqida shunday deyilgan: “Yudg‘oniylar asoschisi Yudg‘on, Tavrotning zohiri va botini, tanzili va ta’vili borligini dav’o qilib, ta’villari bilan aksariyat yahudiylarga qarshi chiqqan. Shuningdek, tashbeh hususida ham ularga qarshi chiqib, qadar masalasida banda o‘z harakatini yaratadi, deyishga moyil edi. Fe’lni haqiqatan bandadan bo‘lishini ilgari surib, savob va iqob ham shunga munosib bo‘lishini aytib, bu masalada qattiq turardi” *(Shahristoniy, 2003, p. 258)*.

Ya’qub Qirqisoniy, Yudg‘onning payg‘ambarlik da’vo qilganini, tarafdorlari esa uni Meyshah deb e’tiqod qilishganini, ko‘p namoz o‘qib, ko‘p ro‘za tutganini keltirgan *(Qirqisoniy, 2019, p. 94)*. Ibn Hazm esa bu firqa to‘g‘risida biror ma’lumot bermagan. Amerikalik xristian teolog, injilshunos olim Deyl Allison o‘zining “Nazaretlik Iso: Mingyillik payg‘ambar” (Jesus of Nazareth: Millenarian Prophet) asarida yudg‘oniylarni boshqa yahudiy firqalardan ko‘ra ko‘proq messiyaga ishonishlarini qayd qilgan *(Allison, 1998, p. 194)*.

Yudg‘oniylik firqasining muqoraba nomli oqimi ham bo‘lib, ularning Xudo o‘zi tanlagan bir farishta orqali payg‘ambarlarga xitob qilgan va u farishtani barcha maxluqotlardan ustun qo‘yib, uni ularga O‘zining o‘rinbosari qilib qo‘ygani to‘g‘risidagi e’tiqodi “al-Milal va-n-nihal“da bayon qilingan. Shuningdek, asarda muqoraba firqasining Tavrot va boshqa kitoblardagi Xudoning sifatlari ushbu farishta to‘g‘risidagi xabar hisoblanishi, Xudoni biror sifat bilan sifatlash mumkin emasligi, Muso payg‘ambar bilan Sinay tog‘ida bilan gaplashgan Xudo emas, aksincha shu farishta bo‘lgani, Xudo inson bilan gaplashishdan oliy ekani haqidagi aqidalari ham keltirilgan *(Shahristoniy, 2003, p. 259)*. Umuman olganda muqorabaning bu e’tiqodi, Tavrotda bashorat berilgan xaloskor – messiya Xudo tomonidan barcha maxluqotlardan ustun qilib qo‘yilgan farishtadir, deb izohlanadi.

4. Mushkoniylik. Firqa asoschisi Yudg‘onning shogirdi Mushkon ismli shaxs bo‘lib, Hamadon va Qum shahrida faoliyat olib borgan. Shahristoniy bu firqani alohida emas, balki yudg‘oniylik tarkibida zikr qilgan. Olim mushkoniylar Qum shahrida qo‘zg‘olon ko‘targanlarini, qo‘zg‘olon natijasida Mushkon o‘ldirilganini va bu toifa Muhammad (s.a.v.)ni yahudiylardan boshqa barcha insoniyatga yuborilgan payg‘ambar deb hisoblashlari to‘g‘risida ma’lumotlar bergan *(Shahristoniy, 2003, p. 258)*. Mushkoniylar yudg‘oniylardan farqli ravishda Muhammad (s.a.v.) nubuvvatini yahudiylarga tegishli emas deb bilishgan. Yahudiy ravvini Isroil Fridlender (1876-1920) ularning Payg‘ambar (s.a.v.)ga bo‘lgan bu e’tiqodiga, “mo‘tadil yahudiyning e’tiqodi”, deb munosabat bildirgan *(Friedlaender, 1912, pp. 242-243)*.

Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hazm va Ya’qub Qirqisoniyning asarlarida bu firqa to‘g‘risida biror ma’lumot kelmagan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ular mushkoniylarni yudg‘oniylarning bir ko‘rinishi sifatida qabul qilishgan.

Yuqorida zikr qilingan to‘rt firqa umaviylar va abbosiylar davrida Eron va Iroqda paydo bo‘lgan va faoliyat yuritgan. Ularning faoliyati asosan musulmon o‘lkalarda olib borilgan. Mana shu jihatlarni inobatga olib, ravvin I.Fridlender ushbu firqalarning messiya-Meyshah to‘g‘risidagi ta’limotlari shialarning Mahdiy borasidagi e’tiqodi bilan qorishib ketgan, degan xulosaga kelgan *(Friedlaender, 1912, pp. 255-256)*.

5. Somiriylik. Bular yahudiylikning qadimgi firqalaridan hisoblanadi. Somiriylik nomining kelib-chiqishi borasida turli qarashlar mavjud. Yahudiylarga ko‘ra, somiriylik nomi yahudiylarning yashash manzillaridan biri Samariya shahri nomidan olingan. Samariya shahri bugungi Isroil davlatining shimolida joylashgan tarixiy viloyat hisoblanadi. Yahudiy tilida

viloyat Shomron deb ataladi. Samariyaning tashkil topishi Muqaddas Kitobning 3-Shohlar, 16-bob, 24-bandida shunday bayon qilingan: “Isroil shohi Omri Shamer ismli odamdan to‘rt pud kumushga tepalik sotib olib, u yerga shahar qurdirdi. Shaharni tepalikning avvalgi egasi Shamerning ismi bilan Samariya deb atadi” *(Muqaddas Kitob, 2016, p. 443)*.

O‘rta asr arab tarixchilarining qarashlariga ko‘ra, firqaning nomi Qur’onda zikr qilingan Somiriyning ismidan olingan. Somiriy asli samariyalik bo‘lib, yahudiylarga yo‘l ko‘rsatuvchi odam bo‘lgan *(Yusuf, 2017, p. 37)*. Yahudiy tilida esa yo‘l ko‘rsatuvchi, qo‘riqlovchi ma’nolarini angatuvchi so‘z “shamarim” deyiladi. Qur’onning Toha surasida Somiriyning ismi uch marta zikr qilingan.

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy somiriylarni Bayt al-Maqdis tog‘larida va Misrning ba’zi qishloqlarida yashaydigan qavm degan *(Shahristoniy, 2003, p. 260)*. Ibn Hazm esa ularni Quddusdan 18 mil uzoqlikdagi Nablus (yahudiy tilida – Shxem) da yashovchilar deb e’tirof qilgan (Andalusiy, 2006, p. 177). Bugungi kunda Nablus va Quddus orasidagi masofa 31 mil yoki 50 kilometrni tashkil etadi.

Abu Rayhon Beruniy “Osor al-boqiya”da: “Somiriylar – Buxtannasr Shomda yahudiylarni asir etib, ulardan shaharni bo‘shatgan vaqtda yahudiylarning joylariga borgan odamlardir. Somiriylar Buxtannasrga yordam berib, Bani Isroilning himoyalanmagan joylarini unga ko‘rsatdilar. Natijada Buxtannasr ularni haydamadi, o‘ldirmadi, asirga olmadi va qo‘l ostidagi Falastin mamlakatiga joylashtirdi. Ularning ko‘pchiligi Falastinning Noblus nomli joyida yashaydilar. Shu yerda ibodatxonalari ham bor”, degan *(Beruniy, 1968, pp. 57-58)*.

Yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, somiriylar Bayt al-Maqdisdan uncha uzoq bo‘lmagan, uzoq muddat qadimgi Misr davlati tarkibida bo‘lgan Samariya viloyatining Nablus shahri tog‘larida istiqomat qiluvchi xalq bo‘lishgan. Qur’onda zikr qilingan Somiriy ismi esa shaharga nisbat bo‘lib, samariyalik degan ma’noni anglatadi.

Shahristoniy somiriylar poklikka boshqa yahudiylardan ko‘ra e’tiborli ekanliklarini, Muso (a.s.), Horun (a.s.) va Yusha ibn Nunning payg‘ambarligini tan olib, ulardan keyingi barcha payg‘ambarlarni inkor qilishlarini, lekin, Tavrotda xabar berilgan, Muso (a.s.) dan keyingi Tavrotni tasdiqlaydigan, uning hukmi bilan hukm qiladigan payg‘ambarnigina tan olishlarini qayd qilgan *(Shahristoniy, 2003, p. 261)*.

Ibn Hazm ularning messiya borasidagi e’tiqodlarini zikr qilmagan. Somiriylar Muso (a.s.) va Yusha ibn Nundan keyin kelgan barcha payg‘ambarlarni rad etishadi. Sham’un, Dovud (a.s.), Sulaymon (a.s.), Ishayo, Al-Yasa’ (a.s.), Ilyos (a.s.), Amos, Habaqquq, Zakariyo (a.s.), Yeremiyo va boshqa payg‘ambarlarning risolatini qabul qilmaydilar. Qayta tirilishni tasdiq etmaydilar. Ular Shomda yashashadi, u yerdan ketishni xohlashmaydi *(Andalusiy, 2006, pp. 177-178)*.

Abu Rayhon Beruniy somiriylarning yahudiy va majusiylar e’tiqodlarining qorishmasiga o‘xshatib, ular boshqa din vakillariga qo‘l tekkizmasligi, agarda teginib ketsalar darrov yuvinishlari, Bani Isroilning Muso (a.s.)dan keyingi payg‘ambarlarini tan olmasliklari borasidagi aqidalarini keltirgan *(Beruniy, 1968, p. 58)*. Tohir Maqdisiy ham o‘zining “al-Ba’d va-t-tarix” asarida somiriylar yahudiy shariatining katta qismini rad qilishlarini va Yusha’ ibn Nundan keyingi payg‘ambarlarning hammasini inkor etishlarini bayon qilgan *(Maqdisiy, 1919, p. 34)*.

Olimlarning fikrlaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, somiriylar poklikka alohida e’tiborli bo‘lishgan, Muso (a.s.), Horun (a.s.) va ularning hizmatkori Yusha’ ibn Nundan boshqa barcha payg‘ambarlarni rad etishgan. Ammo Tavrot matnlariga suyangan holda bir haloskor kelishiga ishonishgan. Shu bilan birga, yahudiylar qabul qilgan qayta tirilish e’tiqodini inkor qilishgan.

Somiriylarning qiblasi to‘g‘risida Shahristoniy aytadi: “Somiriylarning qiblasi Baytul Maqdis va Noblus orasidagi Grizim (Garizim) tog‘idir. Ular: “Xudo Dovudga Muqaddas ma’badni Noblus tog‘ida bino qilishni amr qilgan. Bu tog‘ Xudo Muso (a.s.) bilan gaplashgan Tur tog‘idir. Dovud esa amrga qarshi chiqib, ma’badni Iliyo (Quddus)da qurdi va zolimlardan bo‘ldi”, - deyishgan. Shuning uchun somiriylar boshqa yahudiylardan farqli ravishda Grizim tog‘iga yuzlanib ibodat qilishadi, tillari ham yahudiylarning tillaridan boshqacha”, degan *(Shahristoniy, 2003, p. 261)*. Ibn Hazm esa ular Quddus shahrining muqaddasligini tan olmasliklarini va Nablus tomonga qarab ibodat qilishlarini bayon qilgan *(Andalusiy, 2006, p. 177)*. Abu Rayhon Beruniy ularning qiblasi bir necha marta o‘zgarganini zikr qilib, avval Noblusdan Iliyoga, u yerdan Quddusga ko‘chirilganini qayd qilgan *(Beruniy, 1968, p. 58)*.

Bugungi kunda ham somiriylarning avlodlari Isroilning Nablus provinsiyasida mavjud. Internetning “Wikipedia” nashrida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Nablus aholisining aksariyati musulmon bo‘lib, 350 nafar somiriylar shaharning Grizim tog‘idagi alohida joyda yashashadi *(wikipedia, n.d.)*.

Somiriylarning Tavrot borasidagi aqidalari ham boshqa yahudiy firqalari e’tiqodlariga o‘xshamaydi.

Muso (a.s.)dan keyingi payg‘ambarlarni inkor etganliklari uchun Tavrotdan boshqa kitoblarni ham rad etishadi. Shu sababdan ular faqat Tavrot nusxalarini muqaddas sanab, yahudiylarning Neviim (payg‘ambarlar) va Ketuvim (kitoblar) kitoblarini qabul qilmaydilar. Somiriylar qo‘lidagi Tavrot qadimiy bo‘lib, yahudiylardagi Tavrotdan farq qiladi.

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy somiriylarning Tavrot ibroniy tilida emas, balki unga yaqin bo‘lgan o‘zlari so‘zlashadigan tilda yozilgani keyinchalik esa Kitob suryoniy tiliga o‘girilgani to‘g‘risidagi aqidalarini bayon qilgan *(Shahristoniy, 2003, p. 261)*. Ibn Hazm ham muxtasar qilib, somiriylarning Tavrotidan boshqa yahudyilarning Tavrotlaridan farq qilishini aytgan *(Andalusiy, 2006, p. 177)*.

Bu firqaning kitobi to‘g‘risida “Osor al-boqiya”da shunday deyilgan: “Yahudiy va nasroniylarning o‘z Tavrotlari bor. Nasroniylar qo‘lidagisi “Yetmishlar Tavroti” deyiladi... Yahudiylar Batlimusga Kitobning ibroniy tilidagi bir nusxasini sovg‘a qilishgan. Batlimus ibroniy tilini bilmaganligi uchun, yahudiylardan uni yunon tiliga tarjima qilib berishlarini iltimos qilgan. Uning iltimosiga ko‘ra, yahudiylar Tavrotni yunon tiliga tarjima qilishni yetmish ikki kishi nafar ruhoniyga topshirganlar. Tavrot mana shu ikki nusxadan iborat emas. Balki somiriylarda uning uchinchi nusxasi ham bor. Yahudiylar, nasroniylar va somiriylar qo‘lidagi Tavrotlarda farq mavjud. Yahudlardagi Kitobda Odamning jannatdan tushishi bilan Nuh to‘foni o‘rtasida o‘tgan muddat bir ming olti yuz ellik yil deyiladi. Nasroniylardagi nusxada bu muddat ikki ming ikki yuz qirq yil, somiriylar nusxasida esa bir ming uch yuz yetti yil deyilgan” *(Beruniy, 1968, p. 58)*.

XULOSA

Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy yuqoridagi firqalar yahudiylarning to‘rt katta firqasi ekanini aytib, bu firqalarning barchasi Tavrotda Muso (a.s.)dan keyin keladigan bir shaxsning xabari to‘g‘risida ittifoq qilishganini, ularning ixtiloflari xabar berilgan shaxsning kimligi yoki uning yonida yordamchi bo‘ladigan kishilar to‘g‘risi ekanini, Tavrotning bo‘limlarida Meyshah, oxirzamonda yer yuzini nuri bilan yoritadigan porloq yulduz kabi bo‘lgan bir shaxsning chiqishi ochiq zikr qilinganini, yahudiylar bu shaxsni kutishini va hadisda kelgan firqalar yetmish bir firqa ana shu to‘rt firqadan ajralib chiqqanini bayon qilgan *(Shahristoniy, 2003, pp. 261-262)*.

“Al-Milal va-n-nihal”da bu firqalardan avvalroq paydo bo‘lgan farziylik, saduqiylik, rabboniylik va esseylik kabi firqalar to‘g‘risida ma’lumotlar kelmagan. Shu sababdan olimning, yahudiylarning yetmish bir firqasi to‘rt firqadan tarqagan, degan xulosasi to‘g‘ri emas. Bu guruhlar yahudiylikdan payg‘ambarlarga bo‘lgan munosabatlaridagi qarama-qarshiliklar tufayli ajralib chiqqan. Bular asosan Falastin yerlarida yashagani, olim faoliyat yuritgan mintaqalarda ularning biror bir toifasi kuzatilmagani uchun ular haqida asarda hech narsa deyilmagan.

Yuqoridagilardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy yashagan mintaqada yahudiy oqimlari faoliyat olib borgan. Bu firqalarning aksariyati *(Shahristoniy, 2003, p. 262)* mo‘tadil e’tiqodda bo‘lib, islomga nisbatan bag‘rikeng munisabatda bo‘lishgan. Olim ularning e’tiqodlarini tasniflashda, Tavrot va Meyshahga bo‘lgan ishonchlarini asos qilib olgan. Mutakallim bo‘lishiga qaramay, ularning ta’limotlariga nisbatan keskin munosabatda bo‘lmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allison, D. C. (1998). Jesus of Nazareth: Millenarian Prophet. – Minneapolis: Fortress, 1998.
2. Andalusiy, I. H. (2006). Al-Fisol. – Bayrut, 2006.
3. Beruniy, A. R. (1968). Tanlangan asarlar / tarj. A.Rasulov (T. 1). – Toshkent: O’zbekiston, 1968.
4. Bulut, H. I. (2004). Seviyye (Islam Dunyasinda Ortaya Cikan Ilk Yahudi Mezhebi). // Ekev Academic Review, 8.18. – PP. 297 – 318.
5. Friedlaender, I. (1912). Shiitic Elements in Jewish Sectarianism. // The Jewish Quarterly Review (Vol. 3, No. 2). – PP. 242 – 243.
6. Gündüz, Ş. (2007). YAŞAYAN DÜNYA DiNLERl. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı Dini Yayınlar Dairesi Başkanlığı, 2007.
7. Parzen H. (1932/33). The Problem of the Ibrim (“Hebrews”) in the Bible/ // American Journal of Semitic Languages and Literatures. (49). – PP. 254–261.
8. Joseph Jacobs, M. S. (1913). Isḥaḳ ben Ya’ḳub Obadiah Abu ‘Isa al-Isfahani // The Jewish Encyclopaedia (T. Vol. 6.). – New York: The Kopelman foundation, 1913.
9. Kutluay, Y. (1965). Islam ve yahudi mezhepleri. – Ankara: Ajans-Turk matbaasi, 1965.
10. Mansur, A. (2016). Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016.
11. Maqdisiy, T. (1919). Al-Ba’d va-t-tarix // (T. IV). – Bag’dod : Maktaba as-saqofa va-d-diniya, 1919.
12. Marcus, J. R. (1999). The Jew in the Medieval World: A Source book, 315-1791. – Cincinnati: Hebrew Union College Press, 1999.
13. Muqaddas Kitob. (2016). Toshkent: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti. –2016.
14. Musayriy, A. (1999). Mavsua al-yahud va-l-yahudiya va-s-sahyuniya // (T. V). – Qohira : Dor ash-shuruq, 1999.

15. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. J. 4. (2002). – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2002.
16. Qirqisoniy, Y. (2019). Kitob al-anvor va-l-maroqib. – Qohira : Al-hay’a al-misriya al-omma li-l-kitab, 2019.
17. Shahristoniy, A. (2003). Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut, 2003.
18. Yusuf, S. M. (2017). Hadis va Hayot. // J. 20. – Toshkent: Hilol-nashr, 2017.
19. Murodjon, A. M. M. (2023). THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES DURING THE SELJUK SULTAN SANJAR PERIOD. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8 (5). – PP. 437 – 440.
20. SHAKHRISTĀNĪ, I. M. A. M., & WORK, H. NIHĀYAT AL-IQDĀM FĪ’ILM AL-KALĀM.
21. [Электронный ресурс]. – URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Наблус

REFERENCE

1. Allison, D. C. (1998). Jesus of Nazareth: Millenarian Prophet. – Minneapolis: Fortress, 1998.
2. Andalusiy, I. H. (2006). Al-Fisol. – Bayrut, 2006.
3. Beruniy, A. R. (1968). Tanlangan asarlar / tarj. A.Rasulov (T. 1). – Toshkent: O’zbekiston, 1968.
4. Bulut, H. I. (2004). Seviyye (Islam Dunyasinda Ortaya Cikan Ilk Yahudi Mezhebi). // Ekev Academic Review, 8.18. – PP. 297 – 318.
5. Friedlaender, I. (1912). Shiitic Elements in Jewish Sectarianism. // The Jewish Quarterly Review (Vol. 3, No. 2). – PP. 242 – 243.
6. Gündüz, Ş. (2007). Yashayan dunya Dinleri. – Ankara: Diyanet Ishleri Bashkanlıgı Dini Yayınlar Dairesi Bashkanlıgı, 2007.
7. Parzen H. (1932/33). The Problem of the Ibrim (“Hebrews”) in the Bible/ // American Journal of Semitic Languages and Literatures. (49). – PP. 254–261.
8. Joseph Jacobs, M. S. (1913). Isḥaḳ ben Ya’ḳub Obadiah Abu ‘Isa al-Isfahani // The Jewish Encyclopaedia (T. Vol. 6.). – New York: The Kopelman foundation, 1913.
9. Kutluay, Y. (1965). Islam ve yahudi mezhepleri. – Ankara: Ajans-Turk matbaasi, 1965.
10. Mansur, A. (2016). Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016.
11. Maqdisiy, T. (1919). Al-Ba’d va-t-tarix // (T. IV). – Bag’dod : Maktaba as-saqofa va-d-diniya, 1919.
12. Marcus, J. R. (1999). The Jew in the Medieval World: A Source book, 315-1791. – Cincinnati: Hebrew Union College Press, 1999.
13. Muqaddas Kitob. (2016). Toshkent: Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti. –2016.
14. Musayriy, A. (1999). Mavsua al-yahud va-l-yahudiya va-s-sahyuniya // (T. V). – Qohira : Dor ash-shuruq, 1999.
15. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. J. 4. (2002). – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2002.
16. Qirqisoniy, Y. (2019). Kitob al-anvor va-l-maroqib. – Qohira : Al-hay’a al-misriya al-omma li-l-kitab, 2019.
17. Shahristoniy, A. (2003). Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut, 2003.
18. Yusuf, S. M. (2017). Hadis va Hayot. // J. 20. – Toshkent: Hilol-nashr, 2017.
19. Murodjon, A. M. M. (2023). THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES DURING THE SELJUK SULTAN SANJAR PERIOD. // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8 (5). – PP. 437 – 440.
20. SHAKHRISTANI, I. M. A. M., & WORK, H. NIHAYAT AL-IQDAM FI’ILM AL-KALAM.
21. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Наблус